

**OPPORTUNITIES FOR THE HEAD OF A PRESCHOOL TO INNOVATE IN MANAGEMENT*****Sevara M. Mustanova****Master's student**Termez State Pedagogical Institute**Termez, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** preschool organization, leader, managerial activity, innovation.**Abstract:** The article is devoted to the problem of introducing innovations in the management activities of the head of a preschool organization.**Received:** 05.06.22**Accepted:** 07.06.22**Published:** 09.06.22**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ РАҲБАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИГА ИННОВАЦИЯЛАРНИ ЙОРИЙ ЭТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ*****Sevara M. Mustanova****Magistratura talabasi**Termiz davlat pedagogika instituti**Termiz, O'zbekiston***МАҚОЛА НАҚИДА**

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif tashkiloti, rahbar, boshqaruv faoliyati, tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiya.

Annotatsiya: Maqola Maktabgacha ta'lif tashkiloti, rahbar, boshqaruv faoliyati, tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarini joriy etish muammosiga bag'ishlangan.

ВОЗМОЖНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ ДЛЯ ИННОВАЦИЙ В УПРАВЛЕНИИ***Севара М. Мустанова****студент магистратуры**Термезский государственный педагогический институт**Термез, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** дошкольная организация, руководитель, управленческая деятельность, инновация.**Аннотация:** Статья посвящена проблеме внедрения инноваций в управленческую деятельность руководителя дошкольной организации.

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo’ljallangan Harakatlar strategiyasida maktabgacha ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish va uni yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berildi. Hozirgi vaqtida ta’lim tizimida, jumladan, birinchi bosqich maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish yo‘nalishida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarali olib borilishini ta’minalash va chuqur tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Taqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” deb aytganlar. O’tgan davr mobaynida sog’lom va har tomonlama rivojlangan o’sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta’minalashga qaratilgan samarali maktabgacha ta’lim tizimini tashkil qilish bo‘yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o‘quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, ularning infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash maqsadida qator vazifalar amalga oshirilmoqda.

ASOSIY QISM

Boshqaruv faoliyati deganda, maktabgacha ta’lim nirivojlantirishga va mutaxassis shaxsini ijodiy o‘z-o‘zinianglashga qaratilgan tashkiliy, loyihalash, prognozlash, muvofiqlashtirish va boshqarish funksiyalarida namoyon bo‘ladigan ta’lim sub’ektlari faoliyatini tizimli va ijodiy tartibga solish jarayoni tushuniladi. Tadqiqotda keltirilgan boshqaruv va boshqaruv faoliyati tushunchalarini aniqlashga turli yondashuvlar tahlili mutaxassisning boshqaruv kompetentligining mohiyatini tushunish uchun asos bo‘lib, uning tarkibi va tuzilishi boshqaruvning fenomenologik xususiyatlari mos keladi. Boshqaruv faoliyatiga doir masalalar xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlari asosida o‘rganib chiqildi.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti o‘zaro hurmat, hamkorlik, ishonch, javobgarlik, kompetentlik, teskari aloqalar, o‘zini o‘zi rivojlantirish tamoyillarida to‘liq aks etdi. Ushbu tamoyillar pedagogik menejment, ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti, shu jumladan maktabgacha ta’lim tizimida muammolarni xal etish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish mexanizmi daikkita element o‘zaro ta’sirqiladi: boshqariladigantizim (boshqaruv ob’ekti) va boshqarish tizimi (boshqaruv sub’ekti). Boshqaruv ob’ekti: maktabgacha ta’lim tashkiloti va uning tarkibiy bo‘limlari; pedagoglar tarkibi; iqtisodiy resurslar; o‘quvjarayoni. Boshqaruv sub’ekti har qanday ob’ektni boshqarish kompetentligiga ega kollektiv organi yoki boshqaruvchi shaxsi (maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari; tarbiyachi-metodisti) bo‘lish imumkin. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotining kompetentli rahbari

nafaqat ma'lum bir maxsus, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs, balki jamoada ishlay oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, tashabbus ko'rsatadigan, innovatsion makonda ishlay oladigan, malakali menejer bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasi – bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarning boshqaruv funksiyalarini professional ravishda bajarishga tayyorligi va qobiliyatini belgilab beruvchi, bilimlarni, qadriyatlarni, kommunikativ va tashkiliy-uslubiy faoliyat tarkibiy qismlarining yig'indisidagi ajralmas shaxsiy-kasbiy tavsif bo'lib, buboshqaruv vazifalarini samarali olib borishni ta'minlaydi.

Boshqaruv kompetensiyalarini belgilaydigan bir qator umumiylar qoidalar mavjud. Bular: rahbarning shaxsiy va kasbiy fazilatlari bilan belgilanadigan umumiylar; intellektual, hissiy va kuchli irodali ta'lim, insonning hayotiy pozitsiyas ibilan bog'liq, insonparvar, demokratik, shaxsga yo'nalgalilik; kasbiy faoliyat, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, kengijtimoiy va madaniy fikrlar, fikrlashning moslashuvchanligi sohasidagi fundamental bilimlar; jamoa bilan ishslash, konstruktiv shaxslar aro munosabatlarni qurish, muloqot qobiliyatiga ega bo'lish malakasi; harakatchan bo'lish, odatiy va odatiy bo'lmagan vaziyatlarda tez qaror qabul qilish, yangilikka tayyorgarlik.

Rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida rahbarlarning uzlucksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Ammo rahbarlarning boshqaruv mahorati nimani anglatishi haqida tushunchalar turli mamlakatlarda turlicha bo'lgani kabi, mazkur boshqaruvni rivojlantirish mexanizmlari ham turlichadir. Shu maqsadda Angliya, AQSh, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya davlatlarining MTT rahbarlari malakasini oshirish tizimi borasidagi tajribalar tahlil qilindi. Juhon tajribalari tahlili shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari har kun o'z ustida ishlashi va o'z kasbiy tayyorgarligi doirasida o'zlashtirgan bilimlarini notanish vaziyatlarda qo'llay olishi zarur.

Kompetentli yondashuvning nazariy qoidalaridan kelib chiqadiki, malaka oshirish jarayonida rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini takomillashtirishda o'qitishning asosiy qismi amaliy vazifa (vaziyat) bo'lishi, faoliyatni amalga oshirish usullarini ishlab chiqishi, ko'nikmalarni shakllantirishi va menejmentlik faoliyatida tajribaga ega bo'lishi lozim. Ammo ushbu faoliyatni simulyatsiya shakllaridan foydalanish orqali o'quv jarayonida individual yoki o'quv mashg'ulotlarining bir qismi sifatida maxsus modellashtirish mumkin. Masalan: boshqaruv amaliyoti, o'ziga xos o'yin ko'rinishdag isimulyatsion amaliy boshqaruv va xokazolar. Rahbar boshqaruv kompetentligini shakllantirish jarayonida rahbarlar faoliyatini amaliy jihatdan yo'naltirish, ta'lim metodlari (assesment, keysstadi) o'yin simulyatsiyasi (simulyatsiya, biznes, rolli o'yin) dan foydalangan holda tajribala ro'tkazishni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tizimi innovatsiyasi deb – maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya va boshqarishning yangi usullarini yaratilishi, maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatiga tadbiq etilishi,

tizimni yuritishda marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishi, yangi ish o'rinalarini tashkil etishni yoki tashqi aloqalarni o'matilishini o'zida mujassamlashtirgan faoliyatning yakuniy natijasi sifatida tushuniladi.

Innovatsion menejment quyidagi funksiyalarni bajaradi. Bular: Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion menejment maqsadlarini belgilash, ijtimoiy funksiya, tashkiliy funksiya, motivatsiyani boshqarish funksiyasi, moliyaviy hisob va nazorat funksiyalari. Innovatsion menejmentning quyidagi usullari mavjud: innovatsiyalarni rejalashtirishni tartibga solish, vaziyatni tahlil qilish (vaziyatni, xodimlarni vahokazo), rejalashtirish, moslashtirish, nizolarni boshqarish, kreativ menejment.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining kompetentli rahbari nafaqat boshqaruv faoliyatga tayyor bo'lgan shaxs, balki jamoada ishlay oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, tashabbus ko'rsatadigan, innovatsion makonda ishlayoladigan, malakali menejer bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik menejment, nazariy va amaliy faoliyat sohalarida maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasida Maktabgacha ta'lim sohasida kelgusida olib boriladigan keng islohatlar haqida to'xtalib o'tildi. "Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham, kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz-ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun sharoitlarni yaratishdan iborat".

2017-yilning 3-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziylilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ushbu uchrashuda madaniyat va san'at sohasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar o'rtaga tashlandi. Mazkur yig'ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so'z bordi, yosh iste'dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g'oya, tashabbus va takliflar bildirildi:

XULOSA

Boshqaruvdagagi innovatsiyalar haqida gapirganda, bu tizimni bir holatdan ikkinchi holatga

o'tishga olib keladigan yangi barqaror elementlarni (innovatsiyalarni) amalga oshirish muhitiga kiritadigan maqsadli o'zgarish ekanligini ta'kidlash kerak. Bizning amaliyotimizda ma'lum bir muhitda va ma'lum bir davrda alohida ahamiyatga ega bo'lgan, moslashtirilgan, kengaytirilgan va qayta shakllantirilgan g'oyalar va harakatlar sifatida tavsiflangan yangiliklar mavjud. Modifikatsiya, kombinatsion, radikal (potentsial bo'yicha), xususiy, modulli, tizimli (miqyosda) ishlatilgan. Innovatsiyalarning eng muhim xarakteristikalari - bu dolzarblik, foydalilik va amalga oshirishning mumkin bo'lgan mezonlari.

Bizning amaliyotimizda boshqaruv innovatsiyalari rejalashtirish va tashkil etishda, ta'lif muassasasi faoliyatidagi o'zgarishlar tendentsiyalarini bashorat qilishda, ta'lif muassasasini rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishda, pedagogik va boshqaruv innovatsiyalari bo'yicha ma'lumotlar banki, o'z-o'zini attestatsiyadan o'tkazishda, belgilangan maqsadlarni samarali amalga oshirishga yordam beradigan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar majmuasini ishlab chiqishda.

Boshqaruvda innovatsion texnologiyalar samaradorligini muammoli tahlil qilish amalga oshirildi, natijada rejalashtirish, nazorat tizimini yaratish va pedagogik diagnostikaning dolzarbliji asoslandi.

Rejalashtirishdagi eng keng qamrovli yangilik - bu rejalashtirishdagi bir qator yangiliklarga asoslangan ta'lif muassasasini rivojlantirishning yaxlit dasturini ishlab chiqish:

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini boshqaruv tushunchalari, nazariyalari va yondashuvlari tashkil etadi: tizimli

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M "Harakatlar strategiyasi 2017-2021 y" T.: Ma'naviyat, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: O'zbekiston 2017.
3. SH.M. Mirziyoyev Oliy majlisiga murojati. "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sen. 2017 yil 7 fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6сон, 70-modda.
5. Hamdamova M.T., SH. Qosimova. Maktabgacha ta'lif tashkiloti; Boshqaruvning samarali usullari zarur.
6. Ҳамдамова М.Т., III. Қосимова. Maktabgacha ta'lif tashkiloti; Toshkent, 2019, Б.2-3.3